

MINTAQAVIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MOLIYAVIY NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI

To'lganova Laylo Anvar qizi

Qarshi davlat texnika universiteti magistri

Global iqtisodiy makonda yuz berayotgan keskin o'zgarishlar, raqobatning kuchayishi, moliyaviy xavflarning ortib borishi, davlat byudjeti siyosatining murakkablashuvi hamda biznes subyektlarining zamonaviy boshqaruvga ehtiyoji ortib borayotgan bir davrda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash dolzarb vazifalardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Har qanday davlat yoki mintaqa iqtisodiy taraqqiyoti, avvalo, uning moliyaviy boshqaruv tizimi qay darajada mukammal tashkil etilganligiga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi, soliq va bojsiz to'lovlar intizomini mustahkamlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish hamda iqtisodiy qonunbuzarliklarning oldini olishda moliyaviy nazorat tizimi alohida o'rin tutadi.

Moliyaviy nazorat tizimi iqtisodiyotning boshqaruv elementlaridan biri bo'lib, davlat va nodavlat sektorida moliyaviy intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi. Mintaqaviy darajada esa u iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish, investitsion faoliyatni rag'batlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarning moliyaviy ta'minotini monitoring qilish, hamda iqtisodiy xavfsizlikni kafolatlash vazifalarini bajaradi. Shu bois, milliy iqtisodiyotda olib borilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb talablaridan biridir.

Oxirgi yillarda O'zbekiston Respublikasida moliyaviy boshqaruv va nazorat tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Byudjet jarayonining shaffofligini oshirish, davlat xarajatlari ustidan

parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, mahalliy byudjetlarning mustaqilligini kengaytirish, ichki audit tizimini xalqaro standartlar asosida qayta tashkil etish, soliq ma'murchiligini soddalashtirish kabi muhim o'zgarishlar aynan iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Biroq amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligi ko'p jihatdan moliyaviy nazorat tizimining qay darajada takomillashganiga bog'liq. Ayniqsa, mintaqaviy darajada moliyaviy nazoratning yetarli darajada markazlashtirilmaganligi, vakolatlarning takrorlanishi, axborot tizimlarining integratsiyalashmaganligi, korrupsiya xavfining saqlanib qolayotganligi, hamda moliyaviy boshqaruv sohasida malakali kadrlar yetishmovchiligi mavjud muammolar sirasiga kiradi.[3]

Mintaqaviy iqtisodiy barqarorlik tushunchasi keng mazmunga ega bo'lib, u iqtisodiy resurslarning samarali taqsimlanishi, ishlab chiqarishning uzluksizligi, investitsiya jozibadorligining oshishi, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning muvozanatli o'sishi bilan ifodalanadi. Mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi esa moliyaviy nazorat tizimi mukammal tashkil etilgan taqdirda yuzaga chiqadi. Shu bois zamonaviy iqtisodiyotga asoslangan davlatlarda byudjet intizomini mustahkamlash, soliqlardan bo'yin tovlash holatlariga barham berish, davlat xarajatlari ustidan auditni kuchaytirish, davlat xaridlari tizimida korrupsiyaning oldini olish kabi masalalar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan.

Mazkur mavzu nafaqat ilmiy nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Xususan, mintaqaviy miqyosda moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, byudjet barqarorligini ta'minlash, iqtisodiy xavflarni oldindan aniqlash va ularga qarshi tezkor choralar ko'rish, mintaqalar iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlash kabi masalalarga xizmat qiladi.

Mintaqalarda moliyaviy nazorat mexanizmlarining yetarli darajada ishlamasligi iqtisodiy o'sishga to'siq bo'lishi, byudjet intizomining buzilishiga olib kelishi, iqtisodiy jinoyatchilik ko'lamining ortishiga sabab bo'lishi, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni susaytirishi va investorlar ishonchini pasaytirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy nazoratni takomillashtirish zaruriyatini

chuqur o'rganish, ilmiy asoslash va amaliy mexanizmlar ishlab chiqish strategik ahamiyat kasb etadi.

Mintaqaviy iqtisodiy barqarorlik — bu ma'lum bir hudud yoki mintaqaning iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish orqali ijtimoiy rivojlanishni, moliyaviy mustahkamlikni va iqtisodiy o'sishni ta'minlash qobiliyatidir. Ushbu barqarorlikni ta'minlashda moliyaviy siyosat, rejalashtirish, iqtisodiy boshqaruv va nazorat tizimlarining samarali ishlashi muhim omil hisoblanadi. Xususan, mintaq iqtisodiyotini moliyaviy boshqarishda nazoratning o'rni beqiyosdir, chunki nazorat mexanizmlari orqali iqtisodiy qonuniylik saqlanadi, resurslar talon-taroj qilinishining oldi olinadi va moliyaviy intizom mustahkamlanadi.[2]

Moliyaviy nazorat tizimi – bu moliyaviy jarayonlarning qonuniyligi, samaradorligi va shaffofligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir. U davlat moliyasi, korxona va tashkilotlar moliyasi, byudjet tizimi, kredit va bank munosabatlari hamda investitsiya jarayonlarini qamrab oladi. Moliyaviy nazorat tizimi iqtisodiy barqarorlikning asosiy kafolatlaridan biri bo'lib, u mintaqaviy iqtisodiy siyosatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning zaruriy shartidir.

Moliyaviy nazorat tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy mexanizmlar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Uning quyidagi asosiy turlari mavjud:

Davlat moliyaviy nazorati – davlat byudjeti va fondlari mablag'larining sarflanishi ustidan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat.

Ichki moliyaviy nazorat – xo'jalik yurituvchi subyektlarning ichki boshqaruv tizimi doirasida ularning o'z mablag'lari harakati ustidan yuritiladigan nazorat.

Tashqi moliyaviy nazorat – mustaqil auditorlik tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat.

Jamoatchilik moliyaviy nazorati – nodavlat tashkilotlar va keng jamoatchilik tomonidan olib boriladigan kuzatuv va monitoring.[4]

Mazkur nazorat turlarining o'zaro uyg'unligi moliyaviy tizimning shaffofligiga xizmat qiladi. Shu jihatdan, mintaqaviy iqtisodiyotda moliyaviy

nazorat tizimini joriy etish bilan bir qatorda uni takomillashtirish maqsadida zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini tatbiq etish zarur.

O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat tizimi mustaqillik yillaridan boshlab bosqichma-bosqich shakllandi va takomillashib bordi. Ayniqsa, so'nggi yillarda davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish strategiyasi doirasida ommaviy moliyaviy boshqaruv tizimi qayta ko'rib chiqildi. Davlat moliyaviy nazorati sohasida quyidagi muhim natijalar e'tiborga molik:

Hisob palatasi faoliyatining kuchaytirilishi va uning vakolatlarini kengaytirish;

Ichki audit xizmatlarining davlat idoralari va yirik korxonalarda joriy etilishi;

Byudjet jarayonini raqamlashtirish ("E-Byudjet", "GFMIS") orqali shaffoflikning ta'minlanishi;

Davlat xaridlari tizimining ochiqligini oshirish ("E-auksion", "E-procurement" platformalari);

Soliq ma'murchiligini avtomatlashtirish ("my.soliq.uz" tizimi);

Korrupsiyaga qarshi kurash organlari faoliyatining kuchaytirilishi;

Moliyaviy monitoring tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash.[6]

Ushbu islohotlar samara bergan bo'lsa-da, hali ham mintaqa darajasida aniqlanayotgan moliyaviy xatolik va suiiste'molliklar mazkur tizimni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mintaqa miqyosida moliyaviy nazorat tizimi yetarli darajada samarali emas. Quyidagi omillar bunga asosiy sabab bo'lmoqda:

Moliyaviy nazoratning institutsional boshqaruvi yetarlicha yo'lga qo'yilmagan;

Hududiy byudjet daromad bazasining zaifligi natijasida moliyaviy mustaqillik yetishmaydi;

Ichki audit xizmatlari faoliyatida metodik yondashuvlarning eskirganligi;

Axborot tizimlari integratsiyasining sustligi, ma'lumotlar almashinuvidagi

uzilishlar;

Moliyaviy nazorat bo'yicha malakali kadrlar yetishmovchiligi;

Jamoatchilik nazoratining sustligi va fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki pastligi;

Korrupsiya xavfi saqlanib qolgan sohalar mavjud.

Bu muammolar iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatib, mintaqada byudjet intizomining zaiflashuviga, investitsiyalarning kamayishiga, tartibsiz moliyaviy faoliyatning avj olishiga olib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 452 b.

2. Qodirov M. Moliyaviy nazorat va iqtisodiy barqarorlik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 268 b.

3. Nazarov I. Davlat byudjeti va moliyaviy boshqaruv tizimi. – Samarqand: Registon nashriyoti, 2020. – 194 b.

4. Yakubov Sh. Mintaqaviy iqtisodiyot va modernizatsiya jarayonlari. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2019. – 216 b.

5. Soliyev A. Moliyaviy monitoring va audit tizimlari. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2023. – 305 b.

6. Karimova M. Davlat moliyaviy nazoratining zamonaviy mexanizmlari. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 188 b.